

TURIZMNING RIVOJLANISHI, SHAHAR MUHITIGA TA'SIRI QANDAY? IJOBIYMI YOKI SALBIY?

Shahlo Shoyimardonqulova

Toshkentdagi xalqaro Vestminster universiteti talabasi

ARTICLE INFO.

Annotatsiya

Birlashgan Millatlar Jahon Turizm Tashkiloti (United Nations World Tourism Organization (UNWTO)) ma'lumotlariga ko'ra, butun jahon yalpi ichki mahsulotining 10 foizdan ortig'i, dunyodagi investisiyalarning 7 foizi, soliq tushumlarining 5 foizi, jahondagi iste'molchilik xarajatlarining 11 foizi va har 16 ta yangi yaratilayotgan ish o'rining bittasi aynan turizm va mehmondo'stlik industriyasining hissasiga to'g'ri kelmoqda.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

KIRISH

Birlashgan Millatlar Jahon Turizm Tashkiloti (United Nations World Tourism Organization (UNWTO)) ma'lumotlariga ko'ra, butun jahon yalpi ichki mahsulotining 10 foizdan ortig'i, dunyodagi investisiyalarning 7 foizi, soliq tushumlarining 5 foizi, jahondagi iste'molchilik xarajatlarining 11 foizi va har 16 ta yangi yaratilayotgan ish o'rining bittasi aynan turizm va mehmondo'stlik industriyasining hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Turizm ham iqtisodiy, ham ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega keng qamrovli soha. U daromadligi bo'yicha dunyoda uchinchi o'rinda turadi. Yana bir muhim tomoni, kam xarajat bilan ko'p ish o'rinlari yaratish imkonini beradi.

Mamlakatimizda bu soha izchil rivojlanmoqda. Jumladan, 2022 yilda yurtimizga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 2021 yilga nisbatan 3 baravar oshgan. Soha eksporti 1 milliard 600 million dollarni tashkil etgan. Ichki turizm dasturlari doirasida 11 milliondan ziyod aholi sayohat qilgan. Samarqandda yangi turizm markazi barpo etilgani natijasida u yerga qo'shimcha 2 million sayyoh kelgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Bugungi kunda turizm sohasi yirik mintaqalar va shaharlar iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Turizm iqtisodiy o'sishning eng muhim omili va ba'zi mintaqalar uchun asosiy daromad manbai hisoblanadi. Shu bilan birga bu soha hududlarda rivojlanishni ta'minlash jarayonida atrof-muhitga salbiy ta'sir ham o'tkazib kelmoqda.

Turizmning atrof muhitga ta'siri ko'lamini ko'plab misollarda ko'rish mumkin. Ma'lumki turist doimiy harakatda, sayohatda bo'ladi va shu sabab barqaror turizmga barqaror mobillik talab etiladi. Atrof muhitning ifloslanishini namoyon qiluvchi indikatorlardan biri – atmosferaga korbanad angidrid gazi (SO₂)ning chiqarilishidir. Atmosferaga chiqariladigan korbanad angidrid gazining 72 foizi transportdan, 24 foizi uy-xo'jaligidan, 4 foiz mahalliy ishlab chiqarish faoliyati (sanoat va qishloq xo'jaligi)dan

shakllanadi. Jami transport chiqindilari ichida aviatashishlar chiqindisi 55 foizni tashkil etmoqda. Buni jami turizmdagi 40 foiz ulushni tashkil etadi. Agar bu raqamni atmosferaning umumiy ifloslanishi bo'yicha olib qarasaq, turizm atmosferaning 75 foiz ifloslanishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston dunyoning turizm jadal rivojlanib borayotgan mamlakatlaridan biridir. Mamlakatda 8,2 mingdan ziyod madaniy-meros ob'ektlari mavjud bo'lib, ularning 209 tasi YUNYESKOning umumjahon madaniy meros ob'ektlari ro'yxatiga kiritilgan.

Buxoro respublikamizning turistik salohiyati kuchli hududlaridan biri bo'lib, bu boy tarixiy-madaniy merosi, zaminda ajdodlarimizning buyuk siymolari abadiy qo'nim topganligi, etnografik va madaniy imkoniyatlari, o'ziga xos cho'l landshafti, tabiiy-ekologik resurslari bilan izohlanadi. Ammo shahar turizmidagi asosiy yo'nalish «Buxoroning tarixiy markazi» hisoblanib, bugungi kunda jami sayyohlikning 72 foizi shu yo'nalish doirasida amalga oshiriladi [1; 60].

Turizm xizmatlari tufayli birgina 2021 yilda Buxoro viloyati iqtisodiyoti 478,9 mlrd. so'm (shundan xorijiy sayyohlardan 79,9 mlrd. so'm) foyda ko'rdi. Bu 2020 yilga nisbatan 9,7 barobarga (49,3 mlrd. so'm) [2], 2010 yilga nisbatan 27 barobar (17,7 mlrd. so'm) [3] oshganligini ko'rsatadi. Bu shaharni turizm markaziga aylantirish maqsadida amalga oshirilgan ishlarning natijasidir.

Buxoro viloyatida jami 829 ta madaniy meros ob'ektlari mavjud bo'lib, ularning 139 tasi (16,7 foiz)ga sayyohlar tashrif buyuradi. 829 ta madaniy meros ob'ektidan, 287 ta arxeologiya yodgorliklari, 507 ta arxitektura ob'ektlari, 17 ta monumental san'at asarlari va 18 ta diqqatga sazovor joylardir.

Shuningdek, viloyatda xorijiy va mahalliy sayyohlar tashrif buyuradigan 200 tadan ortiq turizm namoyish ob'ektlari mavjud bo'lib, ular turistik marshrutlarga kiritilgan.

Biroq, butun dunyo mamlakalarida bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham turizmning rivojlanishi bilan birga uning mamlakat mintaqalarida hudud muhitiga, atrof-muhitga, ayniqsa, tarixiy va madaniy yodgorliklarga ta'siri ko'lami ham ortib bormoqda. Shu sababdan turizmning rivojlanishining ijobiy va salbiy tomonlarini solishtiramiz (1-jadval).

1- Turizm rivojlanishining ijobiy va saliy tomonlari solishtiruvi

Turizm rivojlanishining ijobiy tomonlari	Turizm rivojlanishining salbiy tomonlari
<ul style="list-style-type: none"> ➤ Turizmga xizmat qiluvchi shaxobchalar, ob'ektlarning shakllanishi, ularning ko'payishi shahar infratuzilmasi rivojlantiradi; ➤ Turistlar sonining oshishi savdo-sotiq rivojlantiradi; ➤ Turizm servisi ob'ektlarining ko'payishi va savdo shaxobchalarining ortishi yangi ish o'rinlari yaratadi, mahalliy aholi ish bilan ta'minlanadi; ➤ tadbirkorlarning daromadi ortadi; ➤ hududda madaniy hayot rivojlanadi; ➤ shaharning obodonligi, ko'kalamzorligi yaxshilanadi; ➤ aholining turmush tarzi yaxshilanadi; ➤ turli xalqlar madaniyati kirib keladi; ➤ yuqoridagilarning evaziga umumiy hisobda aholining turmush tarzi, hayot farovonligi yuksaladi. 	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Shahar tabiiy-ekologik muhitiga yuklama ortadi, suvdan, daraxtlardan, tuproqdan intensiv (tez-tez) foydalanish ularning qayta tiklanishi imkonini pasaytiradi, ularning ifloslanishi, degradatsiya (buzilishi)ni oshiradi; ➤ turizm infratuzilmasining shakllanishi shahardagi yashil maydonlarning kamayishiga olib keladi; ➤ shaharda yashil maydonlarning kamayishi va beton, asfatlangan maydonlarning ko'payishi havo o'rtacha haroratining ortishiga olib keladi; ➤ hududda shunday ham cheklangan tabiiy resurslar (suv, havo) iste'moli ortadi; ➤ chiqindilar ko'payadi; ➤ tarixiy yodgorliklarga va madaniy ob'ektlarga inson ta'sirining ortishi evaziga bunday ob'ektlarning nurashi, yemirilishi tezlashadi.

Ijobiy va salbiy tomonlarning ayrimlarini misollarda ko'rib chiqamiz.

Turizmga xizmat qiluvchi shaxobchalar, ob'ektlarning shakllanishi, ularning ko'payishi shahar infratuzilmasi rivojlantiradi. Mamlakatda mavjud imkoniyat va salohiyatni hisobga olib, turizmni iqtisodiy jihatdan foydali sohaga aylantirishga katta ahamiyat qaratilganligi o'z natijalarini bermoqda. 2022 yilda Buxoro shahrida 144 ta mehmonxona, 159 ta mehmon uyi, 37 ta xostel, 2 ta kvartira faoliyat yuritgan [2].

Turistlar sonining oshishi savdo-sotiq rivojlantiradi. Shu yilda shaharga 2 265 389 nafar (shundan 48 924 nafari xorijiy) sayyohlar tashrif buyurgan. Bu ko'rsatkich 2020 yilga nisbatan ichki turizmga qariyb 9,3 barobarga (2020 yilda 243,5 ming nafardan oshiq), xorijiy sayyohlar soniga nisbatan 3,6 barobarga (2020 yilda 13,5 ming nafardan oshiq) ortganini ko'rsatadi.

Turizm servisi ob'ektlarining ko'payishi va savdo shaxobchalarining ortishi yangi ish o'rinlari yaratadi, mahalliy aholi ish bilan ta'minlanadi. 2023 yilning yanvar-avgust oylarida 15 ta yangi turistik tashkilotlar faoliyati yo'lga qo'yilishi orqali ularning soni 2022 yildagi 119 tadan hozirda 134 taga oshdi. Ishga tushirilgan 15 ta tashkilotda 56 ta yangi ish o'rni yaratildi. 2023 yilning yanvar-avgust oylarida turizm va unga yondosh sohalarda 10 950 nafar yangi ish o'rinlari yaratildi [2].

Tadbirkorlarning daromadi ortadi. So'nggi 5 yil davomida turizm eksporti hajmi 3,7 barobarga ortib, 37,2 mln. AQSh dollaridan 2022 yilda 138,2 mln.ga yetdi.

Shahar tabiiy-ekologik muhitiga yuklama ortadi, suvdan, daraxtlardan, tuproqdan intensiv (tez-tez) foydalanish ularning qayta tiklanishi imkonini pasaytiradi, ularning ifloslanishi, degradatsiya (buzilishi)ni oshiradi. Buxoro shahrida 300 ming nafar doimiy va 100 ming vaqtincha yashovchi aholi, jami 400 ming kunlik faoliyat olib borsa, bularga Buxoroga kelgan turistlarning o'rtacha kunlik soni 10 ming kishini qo'shsak, raqam kunlik 2,5 foizga ortishini ko'ramiz. Masalan O'zbekistonda maishiy maqsadlarda 1 kishi boshiga 1 sutkada o'rtacha 400-450 litr suv sarflanishini hisobga olsak, 10 ming kishiga suv iste'moli 4 ming tonnaga ortishini ko'ramiz.

Turizm infratuzilmasining shakllanishi shahardagi yashil maydonlarning kamayishiga olib keladi. Buxoro shahrida yashil maydonlar 2000-2022 yillar davomida aholi jon boshiga 7,1 m² dan 6,05 m² ga tushgan [5].

Shaharda yashil maydonlarning kamayishi va beton, asfatlangan maydonlarning ko'payishi havo o'rtacha haroratining ortishiga olib keladi. To'g'ri tashkil etilgan yashil maydonlar havo haroratini 6-8°C, tuproq va asfalt yuzasidagi haroratni 15-24°C gacha tushiradi. Shuningdek, yashil o'simliklar quyosh radiyasiyasini yutish, suvni bug'lantirish xususiyatlari orqali havo namligini oshirib, ifloslangan havoni 85 foizgacha tozalab beradi.

Tarixiy yodgorliklarga va madaniy ob'ektlarga inson ta'sirining ortishi evaziga bunday ob'ektlarning nurashi, emirilishi tezlashadi. Buxorodagi 15 ta karvonsaroyning 13 tasi, 4 ta tim va toqlarning barchasi, 11 ta me'moriy ansamblning 5 tasida turli (kafe, restoran, savdo kompleksi, musiqa maydoni kabilar) maqsadlarda foydalanilmoqda [4].

Buxoro tarixiy markazidagi obidalarining aksariyati loy bilan yopishtirilgan xom va pishgan g'ishtdan qurilgan. Yillar davomida loy, g'isht va boshqa qurilish xomashyolari tabiiy va antropogen ta'sirlar natijasida o'z xususiyatini yo'qotmoqda [6]. Masalan, 2021-yilning 30-iyul kechasi Abdullaxon madrasasining orqa tomon devorining bir bo'lagi ham ko'p yillik texnogen va antropogen jarayonlar (issiq va sovuq iqlim, yog'ingarchiliklar, yer osti suvlarining ko'tarilishi, insonlarning texnik ta'siri) sababli o'pirilib tushdi [7]. Albatta bunday salbiy misollarni ko'p keltirish mumkin.

Albatta, turizmning rivojlanishi ob'ektiv zarurat va har bir hudud, mintaqa uchun muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Uning atrof-muhitga, tabiatga, tarixiy yodgorliklarga ta'sirini kamaytirish, ta'sir ko'lamini pasaytirish maqsadida barqaror turizm, yashil turizm tamoyillarini qo'llashni taklif qilamiz.

“Barqaror turizm” bu turizmning mavjud resurslari va xizmatlaridan tabiatga va ijtimoiy muhitga zarar yetkazmasdan foydalanish va turizm industriyasining doimiy o‘sib borishidir. Barqaror turizm asosan 3 ta tamoyilga asoslanadi: 1) atrof-muhitni asrab-avaylash, bunda turizm sohasi o‘z rivojlanishi jarayonida atrof-muhitga zarar yetkazmasligi lozim. 2) ijtimoiy-madaniy, bunda turistlar mahalliy urf-odatlarini, an'analarni va qadriyatlarini hurmat qilish lozim, mahalliy aholi hudud turizmidan daromad olishi lozim. 3) iqtisodiy, barcha iqtisodiy jarayonlarning samarali faoliyati ta'minlanishi, bunda barcha manfaatdor tomonlar ijtimoiy-iqtisodiy foyda ko‘rishi lozim.

XULOSA

“Barqaror turizm” va “yashil turizm” atamaları adabiyotlarda yangi terminlardan bo‘lib, hali ko‘pigina mualliflar ularning qo‘llanilishida ikkalasini bir-biriga o‘rindosh sifatida ishlatishadi. Ya'ni, “yashil turizm” bu “barqaror turizm” deb ta'riflab ketishadi. Biroq, muallif, “yashil turizm” bu “barqaror turizm”ning bir qismi bo‘lib, “barqaror turizm” “yashil turizm”ga nisbatan kengroq qamrovli tushuncha deb ta'kidlaydi. “Yashil turizm”da faqat turizmning atrof-muhitga zarar yetkazmasdan foydalanish, rekreasiya resurslarining samarali, zararsiz foydalanilishi ekanligin, “barqaror turizm” esa turizmning nafaqat atrof muhitga zarar yetkazmasdan, ekologik xavf-xatarlardan xoli foydalanilishi, balkim, uning makroiqtisodiy va hududiy, mikroiqtisodiy jihatdan, barcha turizm tarmoqlarining barcha hududlarda samarali o‘sishi ham tushuniladi.

Turizm industriyasi rivojlanishi kelgusida ekoturizm, tarixiy turizm yo‘nalishlarida rivojlanishi ortib borishi bashorat qilinadi. Chunki, industriyaning rivojlanishi, zamonaviy shaharlarda madaniy turistik maskanlarning kengayishi insonlarni tabiiy muhitda dam oluvchi hamda tarixiy maskanlarga qiziquvchilar oqimini oshiradi. Bu o‘z navbatida tabiatga va tarixiy yodgorliklarga ular tomonidan salbiy munosabatning ortishiga olib kelmasligi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Buxoro viloyati Turizm va sport bosh boshqarmasining 2021 yilda amalga oshirilgan ishlari yuzasidan hisoboti.
2. Buxoro shahar pasportining 1991-2021 yillardagi ma'lumotlari.
3. Buxoro viloyati Turizm va sport bosh boshqarmasining 2021 yilda amalga oshirilgan ishlari yuzasidan hisoboti.
4. Юлдошева, Б. М. (2022). ПАХТА МОНОПОЛИЯСИНИНГ БУХОРО ШАҲАР АТРОФ МУҲИТИГА ТАЪСИРИ (XX АСР ДАВОМИДА): Юлдошева Бибиражаб Миржонова, Бухоро давлат университети таянч докторанти. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (5), 46-51.
5. Buxoro viloyati Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi hisobot va ma'lumotlari (2010-2022).
6. Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasi 2022 yilgi hisoboti..
7. Buxoroda «Abdullaxon» madrasasi devori qulab tushdi. <https://bugun.uz/2021/08/03/buxoroda-abdullaxon-madrasasi-devori-qulab-tushdi--video/>
8. Buxoro viloyati Turizm va sport bosh boshqarmasining 2021 yilda amalga oshirilgan ishlari yuzasidan hisoboti.
9. Buxoro shahar pasportining 1991-2021 yillardagi ma'lumotlari.
10. Buxoro viloyati Turizm va sport bosh boshqarmasining 2021 yilda amalga oshirilgan ishlari yuzasidan hisoboti.

11. Юлдошева, Б. М. (2022). ПАХТА МОНОПОЛИЯСИНИНГ БУХОРО ШАҲАР АТРОФ МУҲИТИГА ТАЪСИРИ (XX АСР ДАВОМИДА): Юлдошева Бибиражаб Миржоновна, Бухоро давлат университети таянч докторанти. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (5), 46-51.
12. Buxoro viloyati Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi hisobot va ma'lumotlari (2010-2022).
13. Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasi 2022 yilgi hisoboti..
14. Buxoroda «Abdullaxon» madrasasi devori qulab tushdi. <https://bugun.uz/2021/08/03/buxoroda-abdullaxon-madrasasi-devori-qulab-tushdi--video/>
15. Shoimardonkulovich, Y. D. (2021). The role of entrepreneurship in achieving economic stability. *Academicia Globe*, 2(07), 50-54.
16. Shoimardonkulovich, Y. D., & Kadirovna, S. N. (2022). GREEN FACTOR OF ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 23, 102-104.
17. Yuldosheva, B. M. (2022). SOMONIYLAR VA QORAXONIYLAR DAVRIDA BUXORO SHAHAR MADANIYATINING RIVOJLANISHI VA ATROF-MUHITGA MUNOSABAT. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 1307-1313.
18. Yavmutov, D. S. (2020). Opportunities for the development of non-traditional tourism in Bukhara. In *International scientific review of the problems of economics, finance and management* (pp. 15-21).